

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARUV TAMOYILLARI

Rajabova Nargiza Ahmadovna

Bosh ilmiy metodik markaz mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ta'lim sifati — hayot sifati. Ta'lim sifati butun ta'lim tizimi va umuman mamlakatning taraqqiy etishi uchun hayot sifati belgilaydigan asosiy tarkibiy qismidir. Davlatning iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi ko'p jihatdan ta'lim sifatiga bog'liq. Chunki sifatli ta'lim tizimigina barcha sohalarida yetuk kadrlarni yetishtirib beradi.*

Tayanch so'zlar: *ta'lim tizimi, ta'lim sifati, monitoring, baholash, muassasa, kasbiy faoliyat, o'quv jarayoni, raqobatbardoshlik, standart talablari.*

Kirish. Bugungi kunda davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri ta'lim sifati boshqarish tizimini takomillashtirishdir. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham aynan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirishga qaratilgan. Bu ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan minimal vaqt va kuch bilan yuqori natijalarga erishishga imkon beradigan chora-tadbirlarni asoslash, tanlash va amalga oshirish, strategik qarorlarni qabul qilish hamda loyihalar ustida ishlashni anglatadi. Ushbu muammoni hal qilishda aniq pedagogik monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatda bo'lajak kadrlarning kasbiy faoliyati, professional harakatchanlik, o'z- o'zini ijodiy anglash, muloqot madaniyati, texnologiyani to'g'ri tanlash va qo'llay bilish qobiliyati hamda muammolarni hal qilish uchun mas'uliyatni his qilish kabilar o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat muammolarni ko'ra oladigan, balki ularni samarali hal qila oladigan shunday xodimlarga muhtoj.

Ta'lim sifati — ta'lim tizimining ajralmas belgisi bo'lib, resurslar bilan ta'minlash, o'quv jarayoni, ta'lim natijalarining normativ talablarga, ijtimoiy va shaxsiy talablarga muvofiqligi darajasini aks ettiradi.

A.M.Moisev "Ta'lim sifati — talabalar, jamiyat va buyurtmachilar talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta'lim natijasi xususiyatlari va tavsifining o'ziga xos jamlanmasi" deb ta'rif beradi.⁵⁶

⁵⁶ Ignatiev M.N. Ta'lim sifati aniqlashga tizimli yondashuv [Matn] M. N. Ignatiev, E. V. Stambulchik // Iqtisodiyot nazariyasi jurnali. 2012.-№ 4. 199-201-b

Ta'lim sifatini boshqarish — bu ko'p funksiyali murakkab muammo. U muayyan miqyosda (chunonchi, davlat, tarmoqlararo, mintaqa, ta'lim muassasasi doirasida), shuningdek, ma'lum yo'nalishlarda (tashkiliy, tarkibiy, mazmuniy, metodik, kadrlar, resurslar) hal qilinadi.⁵⁷

Ta'lim sifati - jamiyatdagi Ta'lim jarayonining holati va samaradorligini, jamiyatning (turli ijtimoiy guruhlarning) ehtiyojlarini va talablarini insonning fuqarolik, maishiy va professional vakolatlarini rivojlantirish va shakllantirishda muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriyasi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv faoliyatining turli jihatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plami bilan belgilanadi: ta'limning mazmuni, ta'lim shakllari va usullari, moddiy-texnika bazasi, ta'lim olgan yoshlarning malakasini oshirishni ta'minlaydigan kadrlar va boshqalar. Shuningdek, ta'lim sifati o'qituvchining ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan talabalarni tayyorlashning yuqori natijalari bilan ajralib turadigan ta'lim faoliyatining tobora ortib borayotgan darajasidir.

Boshqaruv bo'yicha quyidagi vazifalar ishlab chiqildi:

- ✚ kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quv natijalarini samarali nazorat qilish;
- ✚ muassasa yoki muassasada sodir bo'layotgan real jarayonlarni tizimli uzluksiz monitoring qilish;

ADABIYOTLAR:

1.O'z.Res.Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60 -son qarori.

2.Begimkulov U.Sh. Pedagogik Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. P.f.d. disser. –T., 2007. 305-b.

3.Сибулникова В.Е. Общие основы менеджмента в образовании // Учебное пособие для студентов педагогических вузов. М.: 2016 121-128-с

4.Белникова Й.И. Применение компетентностного подхода при подготовке управленческих кадров малого бизнеса. Ахборотнома Томск: 2012-йил

⁵⁷ Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov "Ta'lim sifatini boshqarish" darslik Toshkent "Turon-Iqbol" 2006 (6-bet)